

YOSHLARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI YUKSALTIRISHDA OILA VA MAKTAB INSTITUTLARINING HAMKORLIGI

Sulaymonova Mahliyo Ne'matillo qizi

Xalikov Ishkabil

Ilmiy rahbar: T.f.d. prof.

Annontatsiya: *O'quvchi-yoshlarni milliy Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash bugungi "Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarash" va "Yangi O'zbekiston orzusi" g'oyalari asosida amalga oshirilishi hozirgi zamon ma'naviyat sohasi vakillariga ulkan vazifalarni yuklamoqda. Ayniqsa vazifalarni amalga oshirishida Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning asosiy vositalari haqida maqolada fikr yuritildi.*

Kalit so'zlar: *Tarixiy ongning shakllanishi, intellektual shakllanish, jismoniy va axloqiy rivojlanish, oilada vatanparvarlik, faol fuqarolik, Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi, fuqarolik-vatanparvarlik.*

KIRISH

Oila bu jamiyatning muhim bir bo'g'inidir. Siyosiy institutdir. Oilada jamiyat uchun haqiqiy inson, davlatning yuksalishi uchun qayg'uradigan faol fuqaro tarbiyalanadi, shakllanadi. Oilada ota-onalar namunasi bolalar uchun hayot darsi hisoblanadi. Otaning onaga, ona mehnatiga, jamiyatga, jamiyat a'zolariga bo'lgan munosabati bola qalbiga yaxshilik yoki yomonlik, ma'qul va noma'qul ishlar haqidagi dastlabki tushunchalarini vujudga keltiradi. Oila muhiti- bu qandaydir tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib boradigan tarbiyaviy ish natijalari, oila a'zolarining o'zaro yuksak ahloqiy munosabatlarining yig'indisi va nihoyat, kattalarning bolalarga ijoboy ta'sir ko'rsatish namunasi natijasidir. Ota-onalar bolalar bilan noto'g'ri munosabatda bo'lmaydigan, bir-birlarini tushunadigan, hurmat qiladigan, bolalarning to'g'ri tarbiyalanishini doimo nazorat qiladigan hamda bolalariga shaxsiy namuna bo'la oladigan oilalarda tashkil topadi. Bolalarga ota-onalarning hatti- harakatlarigina emas, balki gapirayotgan gaplari, o'zaro savol-javoblari, uyga kelgan kishilar va qo'shnilar bilan bo'ladigan muomalasi ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har biro ta ona o'z bolasiga ibrat bo'la olishi kerak.

Oilada samimiylilik tinchlik-totuvlik, o'zaro hurmat va mehr-muhabbat birdamlik kabi xislatlar oiladagi ma'naviy-ruhiy muhitni yaxshilaydi va ota-onalar obro'sini oshiradi, ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ruhiy muhitni yaxshiligiga va ularning kamolotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar bilan munosabatda bosiqlik xulosa chiqarishda shoshmaslik, rag'batlantirish va jazolashda o'ylab ish tutish, ota-onalar obro'sida muhim ahamiyatga ega. To'g'ri bolalarni ba'zan jazolash kerak, lekin bunda ularga ahloq, odob mezonlari haqida tushuncha berish va ularni so'zsiz bajarish lozimligi ota-onalar talab qilsagina, ota-onaning obro'si bo'ladi. Ba'zi ota-onalar o'z bolalaridan talab qila olmaydi, natijada kerakli natijaga erisha olmaydi.

Oilada tarbiyaviy muhitni yaxshilash uchun eng avvalo ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni keskin qisqartirmoq lozim. Telefon bola va ota ona o'rtasida devor bo'lishiga, ota-ona va bola o'rtasidagi muloqotni cheklashga yo'l qo'ymaslik lozim. Internet bu bir bozor unda yaxshi ham, yomon ham bor, undan nimani sotib olish xaridorning zakovatiga bog'liq. Hali ma'naviyati to'liq shakllanmagan bolalar esa internetdan to'g'ri foydalanishni bilmaganlari uchun, turli xil buzg'unchi g'oyalarning girdobiga tushib qolmoqdalar. Bu esa oilaviy ruhiy muhitga qattiq tasir ko'rsatmoqda. Buning oldini olish nihoyatda zarurdir.

Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urfodatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An'ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo'yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona oila tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb etish lozimligini ko'rsatadi. Agarda ota-ona o'zlarining shaxsiy muammolari bilan chalg'ib bolaga o'z vaqtida e'tibor qaratishmasa, uning qiziqishlarini inobatga olishmasa ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'sir kuchi yo'qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarohatlanadi, u tajang, serjahl, qo'pol, dag'al bo'lib qoladi, kattalarga ishonmay qo'yadi, o'qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro'si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o'rtasidagi ta'limtarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar otaona maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, farzandining darslarini o'zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligi haqida o'qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. O'z navbatida o'qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o'qishi, odobi, xulqi, maktabda o'zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug'ilganda paydo bo'lgan muam-molarni birgalikda hal qilishi zarur.

O'quvchilarni tarbiyalash odatda ko'p qirrali jarayonlardan biri hisoblanadi. Shu singari ta'limni ustuvor yo'nalishlari asosan bolalarning jismoniy va axloqiy rivojlanishi; intellektual shakllanishi; shaxsiy madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish; huquqiy va vatanparvarlikni yuksaltirish; estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirish; o'quvchilarda mustaqil hayotiy rejalarini shakllantirish, oilaviy hayotga tayyorgarlikni olib boorish zaruriyatidir.

Bolalar bilan maktab tarbiyaviy ishlarining shakliga nisbatan erkin faoliyat asosida tashkil etishning aniq usuli, kattalar uchun pedagogik jihatdan mos keladigan rahbarlik bilan belgilanishi mumkin. Ta'lim amaliyotida mehnatning xilma-xil shakllari mavjud, ularni tasniflash bir oz qiyin. Shu bilan birga, biz tarbiyaviy ishning ustunligini va asosiy tarkibiy qismini ta'kidlab, tarbiyaviy ish shakllarini soddalashtirishga harakat qilamiz. Maktab o'quvchilarida vatanparvarlik asoslarini o'rgatishda o'qituvchilar turli metod va usullardan foydalanadilar. Ammo tarbiyaviy ahamiyatning ta'lim shakli bu o'yin texnologiyasidir. Yosh o'quvchilar o'yinlari oddiygina xatti-harakatlarning ijtimoiy shaklini taqlid qilishga qaratilgan. Bir tomondan, bolaning biologik tabiati butunlay o'yinda namoyon bo'ladi, boshqa tomondan ijtimoiy moslashishga tayyorlik kuzatiladi. O'yinda kattalar hayotidan xulq-atvor normalari o'qitiladi, qadriyatlar ishlab chiqiladi. Tarbiyalash usullarini qo'llashda "tarbiyaviy muammolarni hal qilish" yoki "bolalarning hayotini, faoliyatlarini, munosabatlarini, muloqotini, faoliyatini rag'batlantiruvchi va xulq atvorni tartibga solishga ko'maklashadigan" kattalar va bolalar o'rtasidagi pedagogik jihatdan mos keladigan o'zaro hamkorlikning ijtimoiy usullari etib belgilash mumkin. Bolani vatanparvarlik hisi bilan tarbiyalashning individual shakllari orasida mustaqil tadqiqotlar (uy vazifasi) alohida ajralib turadi. Masalan, bolalarga yozuvchilarining Vatan tarixidagi jangarilar, ekspluatatorlar, jasoratli va shon-sharaflar haqidagi asar epizodlarini o'qish qiziqarli hisoblanadi. Shuningdek tarixda yashab o'tgan ajdodlarimizning jasorati ham ular uchun juda qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega sanaladi

Vatanparvarlik haqida fikr yuritadigan bo'lsak – bu Vatanga muhabbat, o'z vataniga sadoqat, uning manfaati va xizmatiga tayyorlik, kezi kelganda o'zini qurbon qilish, uni turli yovuz kuchlardan himoya qilish kabi hislar asosida mujassamlanadi. Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi - jamiyatda yuqori ijtimoiy faollik, fuqarolik javobgarligi, ma'naviyatni rivojlantirish, davlatni mustahkamlash, uning manfaatlarini va rivojlanishini ta'minlash. Maqsadga erishishda quyidagilarning rivojlanishi orqali vazifalar amalga oshiriladi: Fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va jamoaviy hayot normalariga hurmat ruhida tarbiyalashdir. Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va uning burchlari amalga oshirilishini ta'minlash uchun sharoit yaratish ham shu jumladandir. O'zbekiston Respublikasining ramzlari hisoblangan - gerb, bayroq, madhiya va Vatanning tarixiy yodgorliklariga g'urur, chuqur hurmat va ehtirom hissini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu masalalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham alohida ko'rsatib o'tilgan. Konstitutsiyaning 60-61-moddalarida aynan mana shu normalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Yuqoridagi tushunchalardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak maktab o'quvchilarida fuqarolik ya'ni Vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish bugungi kunda dolzarbligini e'tiborga olib maktab va sinfdan tashqari soatlarda bunga jiddiyroq kirishish ehtiyoji sezilmoqda. Jumladan mahalla jamiyat a'zolari ham yoshlarni mana shunday ruhda tarbiyalanishi uchun o'z hissalarini qo'shmoqlari lozim.

Vatanparvarlik tarbiyasi shakllari va usullari faol fuqarolikni, Vatanga, Jonajon O'zbekistonga va ularning kichik go'shalariga muhabbat tuyg'ularini shakllantirilishiga

qaratilishi kerak. Fuqarolik va vatanparvarlik ta'limining bunday shakllari maktab o'quvchilarini tarbiya, huquq va tarix fanlarida mustaqil izlanish ishlariga jalb qilishni o'z ichiga oladi.

Maktabning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida ishtirok etish, tarixiy yodgorliklarni bilish va saqlash, himoya qilish bo'yicha o'z o'rnini egallash ham muhim xususiyatdir. Huquqshunoslik darslarida turli xil keys topshiriqlarini ishlash orqali ham o'zlarining dunyoqarashlarinikengaytirmoqlari lozimdir.

Vatanparvarlik mavzularida davra suxbati kunlari, tanlovlar, ko'rgazmalar o'tkazish qatorida g'oliblarni taqdirlash lozim. Jumladan ulug' Vatan urushi faxriylarini, mehnat fronti vakillari bilan mazmunli uchrashuvlarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur jarayonlar o'quvchilarda milliy Vatanga bo'lgan hissiyotlarni g'urur va kuchli shijoat asosida amalaga oshishini ta'minlaydi.

O'quvchilar Vatanni ota-ona va butun yurtimizda yashayotgan jamiyatni tinchligini saqlashdagi jasoratli harakatni ilg'ab yetadi. Bu esa o'z harakatlarida o'quvchilarga milliy iftixor tuyg'usini Prezidentga va barqaror rivojlanayotgan yurtga nisbatan yuksalishini vujudga keltiradi. Bu esa biz ko'zlayotgan Ulug' maqsadga erishishimizning eng muhim yo'lidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Bechora M. S., «Oila-salomatlik-jamiyat», M., 1986 y.
2. Vinnikot D.V. Kichkina bolalar va ularning onalari. M., "Sinf", 1998 yil
3. Avdeeva N.N., Meshcheryakova S.Yu. Siz va chaqaloq. - M., 1991 yil.
4. Davliev I. A., "Men va mening oilam", Tat. kitob nashriyoti 1984 yil
5. Osipov G. V., Kovalenko Yu. P. "Sotsiologiya", M., 1990 y. 6. "Oilaviy munosabatlar madaniyati" maqolalar to'plami M., 198